

**8<sup>th</sup> JUNE**

**2022**



**ISOC**  
INTERNATIONAL  
SCIENTIFIC  
ONLINE  
CONFERENCES

**zenodo**

**OpenAIRE**



digital  
object  
identifier

**OPEN** **ACCESS**

# NETHERLANDS

**INTELLECTUAL EDUCATION  
TECHNOLOGICAL SOLUTIONS  
AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS**



[info.interonconf@mail.ru](mailto:info.interonconf@mail.ru)

[www.interonconf.com](http://www.interonconf.com)



# INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS

International scientific-online conference

Part 5

JUNE 8<sup>th</sup>

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

AMSTERDAM 2022



**International scientific-online conference: INTELLECTUAL EDUCATION  
TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS**



<b>Shodiev Dilshodjon</b> <b>Qurbanov Hojiali</b> <b>Shodieva Gulbakhoroy</b> <i>THE BENEFICIAL PROPERTIES OF MEDECINAL OILS FOR HUMANS</i>	278
<b>Farizakhon Aliyeva</b> <b>Abdurakhmonova Namunakhon</b> <i>BENEFITS OF FLUORIDE ENRICHMENT OF MINERAL DRINKING WATER</i>	282
<b>Valiyev Asiljon Odiljon ógli</b> <b>M.Rakhmonkulov</b> <i>MAIN CONCERNS OF METALWORKING TECHNOLOGY</i>	286
<b>Mavluda Yusupova</b> <i>EMOTIONAL INTELLIGENCE IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES</i>	290
<b>Töychiyeva Sevarabonu Shukurbek qizi</b> <i>LISHA YNIKNING INDIGATORLIK XUSUSIYATI</i>	299
<b>Zainolobidinova S.M</b> <b>Kamolova M.M</b> <b>Rashidova D.A</b> <i>STUDY OF TEMPERATURE DEPENDENCE OF POTENTIAL BARRIER TRANSPARENCY</i>	303
<b>Mardanova Zilola Fatxullo qizi</b> <i>THE SIGNIFICANCE OF SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING.</i>	308
<b>Абдумажитов Құдратжон Қаҳрамон ўғли</b> МИЛЛАТЛАРАРО ТОТУВЛИК ВА ДИНИЙ БАФРИЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ МАҶНАВИЙ ҲАЁТ ВА МИЛЛИЙ ТАРАҚҚИЁТ КАФОЛАТИ СИФАТИДА	311
<b>G'ulomova Komolaxon</b> <i>IJTIMOIY SOHAGA OID INVESTITSIYA LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI VA MAMLAKATIMIZDA ULARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.</i>	316
<b>Abdujalilova Mo"tabarxon Jaxongir qizi</b> «KOREYS TILI TALAFFUZINI O'RGATISHDA KOREYS TILI BO'G'IN TUZILISHINI O'RGANISHNING O'RNI»	319
<b>Шомуродов Шерали Шухратович</b> МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМДА ТАЛАБАЛАРДА МУСТАҚИЛ ИЖОДИЙ ФИКРЛАШ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ	325
<b>Shomurodov SherAli Shuhratovich</b> “MENEJMENT” TA'LIM YO'NALISHI KREDIT-MODUL TIZIMI O'QUV JARAYONIDA MUSTAQIL TA'LIMNI MASOFAVIY TASHKIL ETISH METODIKASI	329
<b>Б.Ю.Номозов</b> <b>Д.Ғ.Азизова</b> <b>Г.А.Джаналиева</b> “НЕФТЬ ҚУДУҚЛАРИНИ ЧУҚУРЛИК НАСОСЛАРИ ЁРДАМИДА ИШЛАТИШДА ЮЗАГА КЕЛАДИГАН МУАММОЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ” МАВЗУСИГА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ	334
<b>Gulomova Muslina Akhamadillo kizi</b> <i>ORGANIZATION OF CULTURAL AND ART INSTITUTIONS</i>	339
<b>Avlayarov a N.M</b> <i>INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN REMOTE EDUCATION OF SPECIALISTS IN THE OIL AND GAS INDUSTRY</i>	343
<b>Рахимжонов Азизжон Вохиджон ўғли</b>	346



**International scientific-online conference: INTELLECTUAL EDUCATION  
TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS**



НОДАВЛАТ ПЕНСИЯ ФОНДЛАРИНИ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ.	
<b>Амантурдиева Муборак Раҳмонқуловна</b> МАҲМУД КОШФАРИЙНИНГ ШАХСИЯТИ.	356
<b>Jo‘rayeva Nilufar Zokir qizi</b> O‘ZBEK XALQ ERTAKLARINING TIL XUSUSIYATI	360
<b>Ismoilova Muborak Yusuf qizi</b> NASRIY ASARLARDA BOLALAR NUTQIGA XOS FIRAZEOLIK BIRLIKLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	363
<b>Abdurahmonova Ibodat Uralovna</b> O‘ZBEK TILIDA BAXT VA BAXTSIZLIK MA’NOLARINI IFODALOVCHI LEKSEMALAR	366
<b>Khudayberganov Samandar Kuziyevich</b> CURTAIN NOTES OF KHOREZM MAQOMS AND ITS GENERAL STRUCTURE	369
<b>Mamatov Alisher Shavkat ugli</b> THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF IMPROVING THE COMPETENCE OF MANAGEMENT PERSONEL	375
<b>Алиева Г</b> СҮЗГА ЭЪТИБОР – ТИЛГА ЭЪТИБОР	381
<b>Алиева Г</b> БЕВОСИТА ВА БИЛВОСИТА ТАРЖИМА МАСАЛАЛАРИ	386
<b>Шоисломова Ситора Сайдовна</b> ОСОБЕННОСТИ МЕР ДИСЦИПЛИНАРНЫХ ВЗЫСКАНИЙ В ТРУДОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН	391
<b>Xudayarova Solihaposhsho Nizomiddinova</b> O‘XSHATISHLARDA MILLIY MADANIYATNING AKS ETISHI	398
<b>Shirinova Dilshoda Ortiq qizi</b> DAVRİY JADVAL MAVZUSINI O`QITISHDA BARQAROR TA'LIMTUSHUNCHASINI TADBIQ QILISHNING KLASTER USULI (YORDAMCHI DASTURLI VOSITALARDAN FOYDALANISH)	402
<b>Xudayarova Solihaposhsho Nizomiddinova</b> O‘XSHATISHLARDA MILLIY MADANIYATNING AKS ETISHI	407
<b>Oripova Mavluda Baxriddinovna</b> O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA “ME’YORDAN ORTIQLIK” SEMANTIKASINING IFODALANISHI	411
<b>Bobodustova Shoxida Davron qizi</b> <b>Rahmatullayev Yorqin Shokirovich</b> QISHLOQ SHAROITIDA BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING MAKRONUTRIYENTLAR BILAN TA’MINLANISHI VA JISMONIY RIVOJLANISHI	416
<b>A.M.Begmatov</b> <b>M.N.Bachchaboyeva</b> DORIVOR MAVRAK (SALVIA OFFICINALIS L.) VA MUSKAT MAVRAGI (SALVIA SCLAERA L.) NING O’SISH XUSUSIYATLARI	423
<b>Erkinova Sabohat</b> TELEREKLAMA MATNLARINING TOMOSHABINGA TA’SIR ETISHIDA LISONIY VOSITALARNING O’RNI	426
<b>Solijonova Zarnigor Baxriddin qizi</b> SIYOVUSH OBRAZINING GENEZESI.	431
<b>Сафорбоева Райхона Каримбоевна</b> КАТЕГОРИЯ ОДУШЕВЛЕННОСТИ И НЕОДУШЕВЛЕННОСТИ ИМЕН	434



DAVRIY JADVAL MAVZUSINI O`QITISHDA BARQAROR  
TA`LIMITUSHUNCHASINI TADBIQ QILISHNING KLASTER USULI  
(YORDAMCHI DASTURLI VOSITALARDAN FOYDALANISH)

**Shirinova Dilshoda Ortiq qizi.**  
*Chirchiq Davlat Pedagogika Instituti*

**Annotatsiya:** *Davriy jadval mavzusini o`qitishda turli elementlarning ishlatalish sohalarini rasmlar orqali ko`rsatib, o`quvchilar ongiga barqaror taraqqiyot ta'limi tushunchalarini singdirish.*

**Kalit so`zlar.** *Davr, kichik davr, katta davr, guruh, bosh guruhcha, qo`shimcha (yonaki) guruhcha, guruhlarda metalllik va metallmaslik xossalaring o`zgarishi.*

**Annotation:** *Introduce the concept of sustainable development education in the minds of students by showing the areas of use of various elements in the teaching of the topic of the periodic table.*

**Keywords:** *Period, small period, large period, group, main group, additional (lateral) group, changes in metallic and non-metallic properties in groups.*

**Аннотация:** Внедрить в сознание учащихся концепцию устойчивого развития образования, показав области использования различных элементов в преподавании темы таблицы Менделеева.

**Ключевые слова:** *Период, малый период, большой период, группа, основная группа, дополнительная (латеральная) группа, изменения металлических и неметаллических свойств в группах.*

Davriy sistemasi mavzusida davriy qonun va davriy jadvali uzoq yillik ilmiy tadqiqotlarning natijasi bo`lib, kimyo fanining katta yutuqlaridan biri hisoblanadi. Davriy jadval- atom massa xarakteristikasi hisoblanadi va unga elementlarning barcha xossalari bog`liq ravishda o`zgaradi. Atomlarning xossalari davriy ravishda massalariga bog`liq holda rivojlanadi. Birinchi bo`lib davriy sistemaga atom massa og`irligiga mos shaklda joylashtirish taklifi berilgan, uning kamchiligi shundan iboratki argon va kaliy, mis va rux elementining o`rin almashinishi davriylik xossalaring buzilishiga olib kelardi. Lekin D.I. Mendeleev elementlarning oddiy va murakkab moddalarining xossalari o`zgarishiga qarab joylashtirsak davriylik xossasiga ega bo`lishini ilmiy asoslab bergen. Hozirgi zamонавий davriy sistemada protonlar soni tartib raqamiga teng bo`lib, proton va elektronlar soni teng, massa ayirmasi proton neytronlar soniga teng.

Mendeleyev ilk bora davriy sistemani jadval holiga keltirdi[1,17]. Hozirgi kunda davriy jadvalning 500dan ortiq variantlari mavjud. Davriy jadvalning qisqa va uzaytirilgan nusxalari bor, asosan qisqa variant foydalanishga qulay, ammo bir

gruppaga xossalari jihatidan o`xshash va yonaki guruhga xossalari o`xshash bo`limgan elementlar joylashtirilgan. Yonaki gurupa elementlar kimyoviy xossalari jihatdan davriylik buzilishiga o`xshab ko`rinadi.

Davriy jadvalning uzaytirilgan variantining kamchiligi yoyilib ketishi va ayrim kataklarning bo`sh qolishida, oltinchi davrida aktinoidlar, yettinchi davrida lantanoidlar joylashishi uni juda cho`ziq ahvolga olib kelib, foydalanishga noqulay bo`lib qoladi. Shuning uchun qisqa variantida lantanoid va aktinoidlar davriy jadvalning pastida ayri joylashtirilgan.

Davriy sistemadagi elementlarning fizik-kimyoviy xossalari, vodorodli, kislородли birikmalar 8-sinf kimyo maktab darsligida batafsil ma'lumotlar berilgan[2, 17-51].

Davriy sistemada chapdan o`ngga qarab hamda pastdan tepaga qarab metallmaslik, o`ngdan chapga qarab, tepadan pastga qarab metallik xossalari ortib boradi, natijada birinchi guruhdan yettinchi guruhga diagonal bo`linish yuzaga keladi. Bosh guruhchalarda nisbiy atom massalari ortib brogan sari metallik xossasi ham kuchayib boradi. Metallmaslik xossasi esa susayib boradi


The diagram shows the periodic table with a red diagonal line running from the top-left (Li) to the bottom-right (Ds). This line includes elements like Be, Al, Ga, Ge, As, Sb, Te, Po, At, Hg, Tl, Pb, Bi, Po, At, and At. The table is labeled with 'Metall maslik ortadi' (Metalllic character) along the top and bottom edges. The red line is labeled 'Metallmaslik ortadi' at both ends. A green arrow points from the left side of the table towards the red line, also labeled 'Metall maslik ortadi'. The table has columns labeled I through VII and rows labeled 1 through 7.

### 1-rasm

Masalan, I guruhning bosh guruhchasida litiydan boshlab pastga tushgan sari metallik xossasi ortib, fransiyda eng yuqori metallik xossalari namoyon bo`ladi. Galogenlarda esa metallmaslik xossasi ftordan boshlab yodga tomon susayib boradi. Eng kuchli metallmas bu ftordir. O`rtadagi diagonal o`tkazilgan chiziq bu amfoter elementlar ustidan o`tgani. Amfoter elementlar xossalari ham metal ham metallmas xossalariiga o`xshash bo`ladi. Asoslar bilan reaksiyaga kirishsa metallmasdek, kislotalar bilan esa xuddi metallardek reaksiyaga kirisha oladi. Amfoterlar ustidan o`tkazilgan diagonal chiziqni chap tomon pastga qarab torgan sari metallik xossalari kuchayib ketadi. Amfoterlar ustidan o`tkazilgan diagonal chiziqni o`ng tomon tepaga qarab torgan sari metallmaslik xossalari kuchayib ketadi (1-rasm). O`quvchilarda ko`rib o`rganilgan ma'lumot uzoqroq xotirada saqlanib qoladi, barqaror taraqiyot ta'limni rivojlanishiga hissasini qo`shadi.

O`ngdan chapga, tepadan pastga qarab atom radiusi ortib boradi. Elektronga moyillik chapdan o`ngga qarab, pastdan tepaga qarab oshib boradi ammo inert gazlar oilasiga keskin pasayadi. Ionlanish potensiali va elektromanfiylik xuddi elektromanfiylik kabi bo`lib inert gazlarga eng maksimal nuqtaga yetadi. Ilmiy izlanishlar natijasida davriy sistema to`ldirilib borilyapti.

Bosh guruhchalarda joylashgan elementlarning tashqi qavatidagi elektronlar soni guruh raqamiga son jihatdan teng. oksidlaridagi yuqori valentligi ham, asosan, guruh raqamiga son jihatdan teng (ftor va kislород bundan mustasno). Vodorod bilan hosil qiladigan uchuvchan birikmalaridagi elementlar valentligi ham davriy ravishda 4 dan 1 ga qadar kamayib boradi (faqt metallmaslar). Elementlarning kvant sonlari to`g`risidagi tushunchalari haqida batafsil ma'lumotlar adabiyotlarda mavjud[3, 1-117].




2-rasm

	Element guruhlari																		
	A	I	II	III	IV	V	VI	VII	BA									VIII	B
1	H	Li	Be	B	C	N	O	F	Ne	He	He	Neon	Ar	Kr	Xe	Rn	Os	Pt	
2	Li	Beryli	Be	Beryli	C	N	O	F	Ne	He	He	Neon	Ar	Kr	Xe	Rn	Os	Pt	
3	Na	Mg	Al	Si	P	S	Cl	Ar											
4	K	Ca	Sc	Ti	V	Cr	Mn	Fe											
5	Rb	Zn	Ga	Ge	As	Sb	Br	Kr											
6	Cs	In	Sn	Sb	Te	Re	Os	Ir											
7	Fr	Ra	Tl	Pb	Bi	Po	At	Rn											

3-rasm


8-sinf kimyo darsida davriy sistemasi mavzusini o`qitishda davriy jadvaldagи elementlarni yaxshiroq o`rganishda turli animatsiya (rasmlar)dan foydalanib tushuntirsak ularning tasavvurlari oshib xotirasida chuqurroq joy egallaydi (3-rasm). Element qanday jismlar, moddalar tarkibida uchrashini ko`rsa tasavvur qilish jarayoni yaxshilanadi, barqaror ta`limga erishimiz yuqori saviyada bo`ladi. Chunki o`quvchilarda eshitib eslab qolishdan ko`ra ko`rib eslab qolish samarali usul hisoblanadi.



Masalan: kislород elementi havoning asosiy tarkibiy qismi bo`lib, biz undan nafas olamiz. Biz musaffo osmonimizni ko`rganimizda kislорodni ko`ramiz, eng ko`p kislорod shu yerda mavjud deb o`quvchilarga tushuntirsak doimo esida kislорod elementi qoladi.

Uglerod tabiatda oddiy modda holida ko'mir, olmos, grafit ko'rinishida juda ko`p uchraydi.

O`quvchi olmos haqida ma'lumot eshitganda, yoki ko`mirni ko`rganda uglerod elementini eslaydi, va bu bilan birgalikda barqaror taraqqiyot hamda barqaror ta'lim maqsadiga erishgan bo`lamiz. Tabiatda uchraydigan elementlar mavjudligini o`quvchilar ongiga singdirib, ulardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni ifloslantirmaslik, tabiiy boyliklarga oqilona munosabatda bo`lish kabi barqaror tararaqiyat tushunchalarni rivojlantirish bilan bir qatorda barqaror ta'limga ham erishib boramiz [4,573] .



### XULOSA

1. Davriy jadvalda guruh tartib raqami uning maksimal valentligiga teng bo`ladi, yuqori valentli oksidlari va gidridlarini bilib olamiz.

2. Davriy sistema muakkammal tuzilganligi, davriy sistemaga qarab bir vaqtning o`zida elektomanfiylik, atom radiusi, ionlanish potensiali, elektronga moyillik o`zgarishi ko`rishimiz mumkin (2-rasm).

3. Elementlarning birikmalarining xossalari davriy ravishda takrorlanib boradi.

4. Elementlarning massalari tartib raqami oshgan sari oshib boradi, Ar va K, Co va Ni shunga o`zhash istisno holatlari ham mavjud.

5. Davriy sistema elementlari uchrashi, tabiiy birikmali, ishlatilish sohalarini turli animatsiyalar bilan ko`rsatish, elementlarni eslab qolish va o`rganishni rivojlantiradi, hamda o`quvchilarga elementlar hosil qilgan moddalardan oqilona va odilona foydalanish kerakligini tushunishiga ko`maklashadi.

6. Insoniyat oziq-ovqat ta`minoti, kasallikkarning tarqalishi, energiya ishlab chiqarish va iqlim o`zgarish kabi yirik muammolarga (5) asosiy sabab bu barqaror taraqqiyot tushunchalarining mohiyatini anglamaslikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Большая энциклопедия химических элементов. Периодическая таблица Менделеева/Илья Леенсон

2. I.R.Asqarov, K.G`opirov, N.X.To`xtaboyev, 8-sinf kimyo darsligi, "Toshkent, Yangiyul poligraph service 2019" 17-51 b



3.. Махов Б.Ф /симметричная квантовая периодическая система элементов (нейтральных атомов) (или новая периодизация периодической системы)/ фундаментальные исследования № 6 2005/52-54 bet,

4. 91.Shirinova D.O. (2021). kimyon o'qitishda talabalaning ekologik intellektual qobiliyatini shakllantirish. academic research in educational sciences, 2(9), 566-570. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-9-571-574>

5. S.X.Mullabayeva, D.A. Shayzakova, Q.A.Artikov,A.A. Raximberdiyeva/O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini baholash/[Academic Research In Educational Sciences/Doi: 10.24412/2181-1385-2022-4-1115-1122/1115-1122b](https://doi.org/10.24412/2181-1385-2022-4-1115-1122/1115-1122b)